


Pardayeva Ozoda Qulmamat qizi
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi
(Tashkent, Uzbekistan)

ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATAN TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk shoir Abdulla Oripovning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi aks etgan.

Kalit so'zlar: e'tirof, mehr, haqqoniyat, xalqchil, betakror, dard, shoir bir yurt.



O'zbekiston – bunyodkorlik, ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, himmat va muruvvat ustuvor bo'lgan, o'z farzandlarining barkamol avlod bo'lib voyaga yetishiga qat'iy ishongan, shunga mustahkam zamin yaratgan bag'rikeng mamlakatdir. Uning yigirma yillik zalvorli odimlari kelajagi buyuk ekanining tasdig'idir... (Abdulla Oripovning durdona fikrlaridan)

Shoirning mustaqillik davridagi ijodi. Buyuk o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov mustaqillik davrida Vatan, Erk, Ozodlikni tarannum etuvchi o'nlab yangi she'rlar yozdi. Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi to'lqinl. ar olib kirdi. Haj safari natijasida tug'ilgan hamda hikmatomuz hadislar talqiniga bag'ishlangan falsafiy-didaktik she'rlari so'nggi bosqich o'zbek adabiyoti ufqlarini yanada kengaytirdi. Abdulla Oripov lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan iz tasviri kirib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda shaldiroq so'zlarni qofiyaga solish, baxtiyorlik liaqida ko'tarinki satrlar tizish odat edi. Mavzuni tsh'e'r emas, balki she'rni mavzu mukarram qiladi deb hisoblanar, sliuning uchun she'rning qanday yozilishidan ko'ra, uning nima haqda ekanligi mubimroq sana-lardi. Abdulla Oripov tuyg'ulari o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirdi. Shoir alohida bir odam va uning dardlari liaqida o'yga botdi, qalam surdi. Bu odam shoirning o'zi edi. Binobarin, bir odam to'g'risida hayqirisb noqulay bo'lardi, u haqda pichirlab she'r o'qish lozim edi. Ghunki shovqin, baland tovush odamni o'zga odamlardan yiroqlashtiradi, samimiylkdan mahrum etadi.

O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,

*Ushbu kunni, ayting-chi, qay birimiz kutmadik.
Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,
Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.
Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,
Kimgadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.
Shukrkim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,
Ya'ni o'zbek Davlatin jumlai jahon bildi. ("O'zbekiston Davlati" she'ridan)*

Abdulla Oripov lirikasi va mavzular rang barangligi. Yuqoridagi she'rlar qatoriga Vatanning oqqush qo'shiqlaridek jaranglovchi «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekiston» kabi she'rlarni; istiqlol davrida yaratilgan «Vatan», «Xalq», «Temur», «Adolat oftobi», «Erk haqqi» singari manzumalarni; «Bedorlik» (1999), «Shoir yuragi» (2003) kabi yangi to'plamlardagi asarlarni: buyuk italyan shoiri Aligeri Dantening «Ilohiy komediya»sidek jahon adabiyotining mumtoz namunasi tarjimasini qo'ysak, A. Oripov ijodining naqadar sermiqyos ekani yanada oydin bo'ladi. Abdulla Oripov ijodida xalqni, Vatanni, fidoyi farzandlarning sevinch-tashvishlarini kuylash shoir ijodining asosiy yo'nalishidir; Uning uslubiga umumni umuman emas, aniqni tiniq kuylash xosdir. «Yurtim shamoli» (1969)da shamol tushunchasi, shamol obrazi shoir talqinida, shunchaki biz bilgan ma'nodan tashqari, chuqur falsafiy umumlashma darajasiga ko'tariladi. Unda Vatan, adolat, tarix talotumlari va hokazolar bilan aloqador ma'nolar chirmashib ketadi:

*Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro'yoda,
Qancha bo'stonlami sovurgan butkul.
Lekin sen bo'lmagin bog'lar zavoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

Qanday shamollar emasini, shoir Vatan shamoli toza bo'lishini orzu qiladi.

Shoir ijodidan ona diyor madhi. O'zbekistonning bo'yi-basti, go'zal tabiati, kamsuqum, mehnatkash xalqi, shu bilan birga jahonga nomi ketgan buyuk allomalari va uning bugungi kundagi salohiyati shoir misralari osha o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi.

*O'zbekning boshidan zar sochsin dunyo,
Topdi u rizqini zaxmati bilan
Uning asosidir buyuk bobolar
Bizga ibrat bo'ldi mexnati bilan*

Abdulla Oripov istiqloldan keyingina ozodlik, o'zbekona milliylik xaqida to'lib-toshib kuylagan, dekas xato bo'ladi. Chunki shoirning 1969 yilda yaratilgan «Ona sayyora» she'ridayoq shu Vatan istiqloliga ishonch zo'r umid uchqunlari sezilib turadi.

*Yillar o'tar, balki o'tar ko'p zamon
Er yuzi chulg'anar, baxtga, chamanga
Agar dardlaringga bo'lolsa darmon
Ruxim fido bo'lsin shunday vatanga*

Shoirning fidoyi qalbi O'zbekiston uchun, o'z millati uchun yonmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shoir tom ma'noda, butun umri davomida yaratgan she'rlarida asriy orzu bo'lgan Mustaqillikni, uning amalga oshishi, qachonlardir uni «oliy bir

jamol chorlashi” ni ta’kidlaydi. Ustoz shoir ijodida Vatan, ona, farzand timsollari juda baland pafosda kuylanganining guvohi bo’lamiz. Abdulla Oripov she’riyati o’zbek milliy badiiy tafakkuri va ruhiyati taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. Shoir ayni vaqtda, alohida qahramon tirnsolida ruhiyatning insoniyatga aloqador turfa jihatlarini, nuqtalarini ochishga usta deb aytsak, adash, aman bo’lamiz.

*Aylayin qalbimni tortiq nurli bo’stonim, senga,
Sen vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.
Bebahosan, asragayman gavharim, deb men seni,
Sen qarog’ bo’lsang agarda, sadqa mujgonim senga...*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mahkam mahmudov. Abadiyat lahzalari. — G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1981.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. — “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1979.
3. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=http://mustaqillik.uz/oz/pages/aripov_abdulla&ved=2ahUKEwi76qHa-_jwAhWSl4sKHTvTDbcQFjAGegQIGRAC&usg=AOvVaw1tnR69gcNEcznsR8l4EX6y